



## BASIC THEORIES OF MENTAL DEVELOPMENT

**Muratova Shoista**

SamDTU Pedagogika-psixologiya kafedrasи v.b.dosenti, p.f.d.

**Sirojiddinov Muhsinbek**

SamDTU Tibbiy pedagogika fakulteti 401 guruh talabasi

**Annotation:** To organize the acquisition of knowledge about the essence of mental development, different views on it, factors and driving forces of mental development, periodization of work, and formation of competences and skills by future pedagogues.

**Keywords:** psychic development, animal psyche, dialectical materialism, social life, social flow, mechanisms of consciousness, types of activities, environment, communication with teenagers, motives.

### ОСНОВНЫЕ ТЕОРИИ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

**Аннотация:** Организовать получение знаний о сущности психического развития, различных взглядах на него, факторах и движущих силах психического развития, периодизации работы, формировании компетенций и умений будущими педагогами.

**Ключевые слова:** психическое развитие, психика животных, диалектический материализм, социальная жизнь, социальный поток, механизмы сознания, виды деятельности, среда, общение с подростками, мотивы.

### ПСИХИК РИВОЖЛАНИШ ҲАҚИДАГИ АСОСИЙ НАЗАРИЯЛАР

**Аннотация:** Бўлажак педагоглар томонидан психик тараққиуот можияти, унга бўлган турли қарашлар, психик ривожланиш омиллари ва ҳаракатлантирувчи кучлари, уошни даврлаштириш ҳақидаги билимларни ўзлаштирилишини ташкил этиш ва малака, кўникмаларни шакллантириш этиш.

**Калит сўзи:** психик ривожланиш, ҳайvon психикаси, диалектик материализм, ижтимоий ҳаёт, социал оқим, онг механизмлари, фаолият турлари, атроф мухит, ўсмиirlар билан мулоқотга киришиш, мотивлар.

Inson va hayvon psixikasi doimiy rivojlanish holatida bo'ladi. Biroq hayyonot dunyosidagi va insoniyatda bo'ladigan rivojlanish jarayoni o'z xarakteri va mazmuni jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Hayvonot

dunyosidagi psixik taraqqiyot mexanizmlari – nasliy, biologik jihatdan mustahkamlangan tajribani avloddan - avlodga uzatish bo'lib, uning asosida hayvonlarning tashqi muhitga individual moslashuvi ro'y beradi.

Inson psixik funktsiyalarining rivojlanish mohiyati shundan iboratki, ular bolaning ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish jarayonida rivojlanadi. Bola insonlar orasida, insoniy predmetlar hamda munosabatlar dunyosida olamga keladi va yashaydi. Bu predmet va munosabatlarda esa ijtimoiy amaliyot tajribasi qayd etilgan. Bolaning rivojlanishi esa mana shu tajribani o'zlashtirish jarayonidir. Bu jarayon kattalar tomonidan doimiy rahbarlik qilish sharoitlarida, ya'ni ta'lif, tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Psixik taraqqiyot muammosi, inson shaxsining tarkib topish muammosi psixologiyaning eng murakkab masalalaridan biridir. Shu bilan birga bu muammo markaziy muammo hisoblanadi. Uning hal qilinishi ayniqsa hozirgi sharoitlarda, ya'ni o'zida ma'naviy boylik axloqiy soqlik va jismoniy kamolotni garmonik ravishda mujassamlashtirgan yangi shaxsni tarbiyalash vazifasi birinchi o'ringa chiqarilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Psixik taraqqiyot jarayonining qonuniyatları, uning omillari hamda harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi bilimlarsiz insonni tarbiyalash ishini ham amalga oshirib bo'lmaydi.

Insonda biologik va ijtimoiy tomonlar munosabati haqidagi masala psixologiyada dialektik ta'lilotga asosan hal qilinadi. Bu ta'lilotga binoan inson –barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat. Dialektik materializm insonga ijtimoiy-tarixiy mavjudot sifatida, shu bilan bir vaqtida tabiatning bir bo'lagi, deb qaraydi. Inson – biosotsial mavjudot. Shuning uchun ham uning psixik taraqqiyotga ikki asosiy omil:

1) Biologik, tabiiy.

2) Ijtimoiy – hayot sharoitlari, jamiyat tomonidan tashkil etiladigan ta'lif va tarbiya ta'sir ko'rsatadi.

Bu ikki omilning o'zaro munosabati turli oqim namoyondalari, (ya'ni biologik va sotsial) tomonidan turlicha talqin qilinadi. Biologik oqim namoyondalari insondagi tug'ma, hayotiy jarayonlarni uni rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir qiladi, deb tan oladilar.

Sotsial oqim namoyondalari esa, aksincha, asosiy omil – tashqi ta'sir, deb hisoblaydilar va biologik faktorning rolini inkor etadilar.

Bu ikkala yondoshuv ham antidialektik, metafizik xarakterdagi yondoshuv bo'lib, har ikkala oqim ham psixik taraqqiyotga ta'sir etuvchi bitta omilni tan oladilar va ular o'rtasidagi o'zaro munosabat ham o'zaro ta'sirini ko'rmaydilar.

Psixik taraqqiyot masalasini dialektik nuqtai - nazardan hal qilishi va ikkala omil ta'sirini birlikda qarash to'g'ri yo'nalish hisoblanadi.

Biologik omillarga irsiyat va tug'ma, nasldan-naslga o'tuvchi xususiyatlar kiradi. Bola nasliy yo'l bilan avvalom bor nerv sistemasi tuzilishini bosh miya, sezgi organlarining insoniy xususiyatlarini; har bir kishi uchun xos bo'lgan jismoniy belgilar – ikki oyoqlab yurish, atrof-muhitni bilish va unga ta'sir etish organi sifatida qo'lga egalik, nutq harakat apparatining o'ziga xos, insoniy tuzilishini oladi.

Bulardan tashqari biologik, instiktiv ehtiyojlar – ovqatga, issiqlikka bo'lgan ehtiyojlarni, oliy nerv faoliyati tipi xususiyatlarini ham bola nasliy yo'l bilan qabul qiladi. Nerv sistemasi, sezgi organlari, bosh miyaning tabiiy, tug'ma psixofiziologik va anatomiq xususiyatlari layoqat deb ataladi. Layoqat asosida esa insoniy, intellektual xususiyatlar, qobiliyatlar shakllanadi va rivojlanadi.

Demak, biologik omillar shaxsning shakllanishida, psixik taraqqiyotning faqat tabiiy xususiyatlari bola rivojlanishini belgilamaydi. Biologik xususiyatlar insonning tabiiy asosini tashkil qiladi. Uning mohiyati esa sotsial, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlardan iborat.

Inson shaxs sifatida ijtimoiy, sotsial muhitning hal qiluvchi ta'siri ostida shakllanadi.

Bolaning psixik taraqqiyotiga tabiiy muhit muayyan ta'sir ko'rsatadi.

Ammo bolaning psixik taraqqiyotiga uning insoniy jamiyatidagi hayoti asosiy turki beradi. Boshqa kishilar bilan muloqotda bo'limasa, bolada psixik taraqqiyot ham bo'lmaydi. Bunga misol, hayvonlar orasida yashab, tarbiyalangan bola: (nutqi rivojlanmagan, aqliy qobiliyatları yo'q, insoniy histuyg'u, o'z-o'zini anglash mavjud emas).

Hozirgi zamon biologiya fanining ta'kidlashicha, organizm bilan uni o'rabi turgan atrof-muhit bir-butunlikni tashkil etadi.

Tabiiy va ijtimoiy muhit farqlanadi. Tabiiy muhitni iqlim, o'simliklar hamda geografik sharoitlar tashkil qiladi. Tabiiy sharoitlar bolaning rivojlanishiga ta'sir qiladimi? Tabiiy muhit bolaning rivojlanishiga organizm sifatida ta'sir qiladi. Masalan: issiq cho'l zonasida yashovchi bola bilan shimolda, yoki dengiz bo'yida yashovchi bolalarning modda almashinuvida keskin farq qiladi. Biroq, tabiiy muhit bolaning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir qilmaydi, balki sotsial muhit, kishilarning ijtimoiy mehnat faoliyati orqali ta'sir etadi.

Demak, bolaning psixik rivojlanishida sotsial muhit katta ahamiyatga ega. Tajribaning ko'rsatishicha insoniyat jamiyatidan tashqarida go'dak haqiqiy, taraqqiy etgan inson bo'la olmaydi.

Har bir bola yashaydigan ijtimoiy muhit bir emas, balki bir necha qavatdan, zonadan iborat. Eng yaqin zona – oilaviy muhitdir. Oilaga

qaraganda kengroq zonani bolaning o'rtoqlari, tarbiyachilari tashkil etadi. Bundan tashqari yana bir zonani bolaning qarindoshlari, qo'shnilarini tashkil qiladi va nihoyat, eng keng zona – ijtimoiy muhit bo'lib hisoblanadi. Uning ta'siri faqat bevosita xatti-harakat namunalari, alohida kishilarning mulohazalari orqali emas, balki kitob va gazeta, radio, kino, televideniya, jamiyatda o'rnatilgan qonun, qoida va odatlar, axloq talablari, estetika orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, psixologiya fani odamning psixik xususiyatlari uning hayoti davomida, ya'ni ontogenetik tarzda yuzaga keladi, bu xususiyatlarning tarkib topishi va rivojlanishida odamning ijtimoiy tajribasi uning hayoti va faoliyat sharoitlari, ta'lif va tarbiya yetakchi, hal qiluvchi ro'b o'yinaydi deb o'rgatadi.

Biroq, agar bolaning shaxsiy aktivligi mavjud bo'limasa, muhit ham, irliyat ham shaxsga, uning psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Faqat o'zining faolligini ko'rsatgandagina bola atrof muhitning ta'sirini his qilishi mumkin, shundagina uning nasliy xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin.

Bola faolligini hisobga olishni zarurligi psixologiyaning muhim printsipli – ong va faoliyatning birligi printsipidan kelib chiqadi.

Ong faoliyatda namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Bolaning faolligi turli shaklda bo'lishi mumkin: taqliddan tortib, to ijodiy aktivlik, tashabbuskorlikkacha. Ammo bolaning faolligi qaysi shaklda bo'lmisin, u atrof muhitni, dunyoni bilish, uning rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi. Faollikda bola o'zini namoyon qiladi va rivojlanib boradi. Rivojlanishning samarali bo'lishi bola faolligining kattalar tomonidan boshqarilishiga bog'lia bo'ladi. Bola faolligini rivojlanishning barcha bosqichlarida boshqarib borish muhimdir. Bola faolligini tashkil qilishning asosiy formasi esa – ta'lif va tarbiyadir.

Rivojlanish jarayonida bola shaxsining o'zgarishi ham ro'y beradi. Bu o'zgarishlarni 3 ta guruhga bo'lish mumkin.

1. Shaxs yo'naliشining rivojlanishi.
2. Faoliyatning psixologik strukturasidagi xususiyatlar.
3. Ong mexanizmlarining rivojlanish darajasi.

Rivojlanish jarayonida bolalarda shakllanuvchi motivlar turlitumandir. Shunga muvofiq ularning yo'naliши ham harxil bo'lishi mumkin. Ba'zi bolalarda o'qishga bo'lgan yo'naliш yetakchilik qiladi: bu bolalar uchun yaxshi o'qish, o'qituvchi talablarini bajarish muhimdir, ularni o'zlashtirish baholari tashvishlantiradi. Boshqa bolalar o'zlarining bilishga bo'lgan yo'naliшlari bilan ajralib turadilar. Ular masalalar yechish, yangi bilimlar olishni yoqtiradilar. Biroq barcha predmetlarga ham o'quvchilar bir xilda munosabatda bo'lmaydilar. Ular uchun baho emas, darslarning qiziqarliligi muhimdir.

Ko‘pchilik bolalar uchun atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlar muhimroq. Bu bolalarning xulq-atvori jamoada muayyan o‘rinni egallash, tengdoshlari, kattalar bilan o‘zaro munosabatlarda o‘z o‘rnini aniqlash bilan belgilanadi. Biroq shaxs yo‘nalishi doimo o‘zgarib turadi. Masalan: boshlang‘ich sinflarda o‘qishga bo‘lgan yo‘nalish kuchli bo‘lsa, o‘smirlarda atrofdagilar bilan munosabatlar ahamiyatliroq bo‘ladi.

Har qanday faoliyat bir necha elementlarni o‘z ichiga oladi. Ular faoliyatning psixologik tuzilishini tashkil etadi.

Faoliyat – harakat.

Motiv – maqsad.

Operatsiya – usul.

Faoliyatda maqsad va uning motiv bilan aloqasi muhim hisoblanadi. Bola psixik faoliyatining maqsadga yo‘nalganligi asta-sekin shakllanadi. Masalan: 3 yoshli bolalar o‘z harakatlarini ko‘zlagan maqsad bo‘yicha tashkil eta olmaydilar, ular maqsadni unutib qo‘yishlari mumkin. 5 – 6 yoshli bolalar harakatlari materialga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi.

Kichik mакtab yoshining oxirlariga kelib, o‘quvchilarda faoliyat maqsadi bilan motivi o‘rtasida aloqa o‘rnatish malakasi shakllanadi. Shunday qilib, faoliyat psixologik strukturasining rivojlanish jarayonida bola xattiharakatining xususiyatlari va faoliyatining tuzilishi o‘zgaradi. Maqsadga yo‘nalganlik, ixtiyoriylik, uyushqoqlik rivojlanadi.

Ong rivojlanish jarayonida bola tomonidan voqelikni ideal ravishda aks ettirish mexanizmlari, struktura va mazmuni o‘zgaradi. Bu ayniqsa, bola aqliy faoliyati xususiyatlarining o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Ong rivojlanishining muhim ko‘rsatkichi, o‘z-o‘zini, o‘zining – Menini anglashdir. O‘zining – Menini anglash bola shaxsi rivojlanishining turli tomonlarini xarakterlovchi asosiy mexanizmlardir. Bola psixik rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi masala ham eng muhim masalalardan biridir.

Bola psixik rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi masala ham eng muhim masalalardan biridir.

Rivojlanish, taraqqiyot haqidagi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan 2 ta qontseptsiya mavjud. Bular:

1. Dialektik.

2. Metafizik.

Birinchi qontseptsiyaga muvofiq, taraqqiyot qarama-qarshiliklar birligidan iborat bo‘lsa, ikkinchisiga binoan taraqqiyot ko‘payish va kamayish, o‘sish, takrorlanish sifatida qaraladi. Taraqqiyotga metafizik qarashga ko‘ra, harakat taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, uning manbalari, motivi chetda qolib ketadi. Bu qontseptsiyaning mohiyati shundan iboratki, unga



muvofiq taraqqiyot – miqdoriy o'zgarish, muayyan xususiyatning ko'payishi yoki kamayishidan iborat. Masalan: bolaning lug'at boyligining ko'payishi, ya'ni so'z boyligini to'plash; nutq rivojlanishida xatolarning kamayishi; xotira, diqqat, ko'nikmalar hajmining kengayishi – bolaning psixik rivojlanishi, deb qaraladi.

Dialektik qarashga ko'ra, jamiyat va tabiatdagi har qanday harakat singari rivojlanish, taraqqiyot ham ichki qarama-qarshiliklar kurashidan iborat.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.
2. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. –Pedagogika va psixologiyall (ilmiy ommabop seriya). T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.
3. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. Izd. vtoroye, dop., ispr. i pererab. - M.: Logos, 2002.- 384 s.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2000. - 111 b.
5. V.A.Krutetskiy. "Pedagogik psixologiya asoslari". –T.: O'qituvchi.1976
6. Nemov R.S. Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vissch. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – 4-e izd. – M.: Gumanit.izd. sentr VLADOS, 2003.-Kn.2: Psixologiya obrazovaniya.
7. Shaxs inqiroz holatining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etish. -T.: 1997. – 39 b.
8. Muratova Sh.N. O'smir yoshdagi o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimiliy jihatlari. O'zMU xabarlari, {1/2/1}ISSN: 2181-7324, 2020, 6-son, - B. 91-95, [19.00.00 №10]
9. Muratova Sh.N. O'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining ilmiy-nazariy asoslari va uning o'rganilganlik holati. O'zMU xabarlari, {1/2/1}ISSN: 2181-7324, 9-son, - B. 82-86, [19.00.00 №10]
10. Muratova Sh.N. Otaning farzandlar tarbiyasidagi o'rni. Ta'lim, fan va innovatsiya, ilmiy axborotnoma. 2022, 5-son, - B. 82-86, [19.00.00 №10]
11. O'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari. SamDU ilmiy axborotnoma. ISSN: 2091-54-46, 2020, 6-son (124), - B. 100-105. [19.00.00 №10]
12. Muratova Sh.N. Nikoh oldi omillarining yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari. BuxDU psixolo-giya ilmiy jurnal. ISSN 2181-5291, 2021, 3-son, - B. 84-90. [19.00.00 №10]



## International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS



13. Muratova Sh.N. Oilada o'g'il bolalarni pedagogik va psixologik tarbiyasida nazariy qarashlar tahlili. NamDU ilmiy axborotnomasi. ISN: 2181, 2019, 6-con, - B. 409-415, [19.00.00 №10].
4. Muratova Sh.N. Problems of youth for family life. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, /ISSN: 1475-7192, Volume 24, № 10, 2020, <https://www.psychosocial.com/> p. 282-291.
15. Muratova Sh.N. The place of the psychological environment in the family to increase student activity in the educational process. //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) ISSN: 2278-4853 Impact Factor: SJIF 2020/882 "RESEARCH INVESTIGATIONS OF GLOBAL WORLD ON PANDEMIC TIME" MAY 2020, DOI NUMBER: 10.5958/2278-4853, ISSN: 2278-4853, Volume 9, № 5, May, 2020, <https://www.tarj.in>. p. 8-11.
16. Muratova Sh.N. MARRIAGE AGE AND NEGATIVE CONSEQUENCES OF EARLY MARRIAGE. // European Scholar Journal (ESJ). Available Online at, ISSN: 2660-5562, Volume 2, № 3, March, 2021, <https://scholarzest.com> /p. 27-30.